MILLIY HUNARMANDCHILIKNI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Salohiddinova Zebo Karimjonovna - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

O‘zbekiston XXI asrda jahon hamjamyatidan qanday o‘rin egallashi o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonla bo‘lib voyaga yetishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shunday ekan, ayni paytda bu sohada yo‘l qoyilgan har qanday sustkashlik, kamchilik kelajakka berilgan zarbaga teng, deyidh mumkin.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish, band bo‘lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta’minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-sonli qarori imzolandi.

Xalq hunarmandchilik fanining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘ajak o‘qituvchilarni o‘z kasbining ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy, madaniy tariximizni chuqur o‘rgatishdir. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimiz, xalq hunarmandchilikni tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirishga muhim omillardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Miziyoyev tomonlaridan joriy yilning 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida hunarmandchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5721 sonli farmoni qabul qilindi. Maskur farmon ijrosi doirasida, mamlakatimizda mahalliy hunarmandchilik tarmog‘ini tiklash va rivojlantirish shuningdek ishlab chiqarishlarni kengaytirishiga zamin yaratadi. Xalqimizning boy madaniy va tarixiy an’analari to‘liq saqlab qolish, milliy hunarmandchilikni xalq badiiy va amaliy sa’natlarini yanada rivojlantirishimiz, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadliy va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosida aholi, ayniqsa yoshlar va kam ta’minlangan oilalar bandligini ta’minlash maqsadida Prizidentimiz Shavkat Miromonivich Mirziyoyev farmonlari e’lon qilingan.

Qadimshunos va tarixiy olimlarimizning tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, zaminimizda qadimdan turli amalliy hunarmandchiligini markazlari vujudga kelgan va asrlar mobaynida shakillanib kelinmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha qator tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda, masalan ichki va tashqiy bozorlarda mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minlash.

Shunda aholini yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini oshirishga zamin yaratadi. Hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad, bugungi kunda aholi xususan yoshlar bandligini taminlash orqali oilaviy faravonlikni oshirish, muhum yo‘nalishlari sifatida o‘zini namoyon etadi. Hunarmandchilik sohasining yoshlar o‘rtasida psixologik va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, yoshlarimizni sabr-bardoshli, bo‘lishini taminlaydi. Birinchi Prezdentimiz Islom Karimov takidalb o‘tgandek: “O‘zbekiston XXI asrda jahon hamjamyatidan qanday o‘rin egallashi o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonla bo‘lib voyaga yetishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shunday ekan, ayni paytda bu sohada yo‘l qo‘yilgan har qanday sustkashlik, kamchilik kelajakka berilgan zarbaga teng”, deyish mumkin. Bundan tashqari hunarmandchilik sohasida yoshlarni yetuk kadrlar qilib tayyorlash mumkunligini anglab yetishimiz zarur. Shu jumladan mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni har tomonlama rivojlantirishimiz va hunarmandlarni qo‘llab quvvatlash boyicha islohatlar jadal suratlarda rivojlanmoqda. Milliy hunarmandchiligimiz o‘zbek xalqining asrlar davomida o‘z qadr qimmatini yo‘qotmay hozirgi kungacha qo‘li gul hunarmandlar tomonidan shug‘illanib kelayotgan sohadir. Hunarmandchilik tobora takomillasha borib turli ixtisosliklarga ajralib turgan. Masalan, kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskorlik, binokorlik, uymakorlik, kashtachilik, zargarlik, zardozlik va boshqalarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Bizning hunarmandchiligimiz asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ham madaniy ham ma’naviy merosimiz bo‘lib kelmoqda. Qadimiy zargarlik bezatilgan bezaklari kiyim kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zebuziynatlaridan biri bo‘lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy birlashgan rangi, shakli va vazifasi bilan hamohang bo‘lgan. Xalqning dekorativ amaliy san’atiga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borayotganligini uning tarixiy madaniyati roli doston va musiqa raqsda bo‘lgani kabi xalq harakterining eng teran xususiyatlari, estetik qarashlari, didi, dunyoqarashi va talantni o‘zida namoyon qilishi bilan belgilanadi.

Xalq hunarmandchiligida ustozlarning o‘ziga yarasha shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o‘z me’zoni bo‘lgan. Shu me’zon asosida ustaga ijobiy va salbiy baho berganlar. Shuning uchun ota farzandini yakka shogirtlikka berishda ustozining yuqoridagi me’zonga javob bera olishi darajasini o‘rganib chiqan. Mamlakatimizda muzeylarni tashkil topishi ham o‘zbek xalq madaniyati rivojlanishida muhim bosqich bo‘lgan. Muzeylarda xalqimizning hunarmandchilik buyumlaring to‘plashi, saqlashi, o‘rganishi va tadqiqot ishlarini olib borish asosiy vazifa hisoblanadi. Hunarmandlarimizning o‘z hunariga bo‘lgan hurmat e’tibori tufayli biz qadryatlarimizni saqlab qolishga erishdik. Biz bu qadryatlarni namoyish qilish bilan birgalikda, chet ellik shu soha ixlosmandlarini jalb eta oldik. Yurtimizga kelayotgan minglab mehmonlar tarixiy obidalarimiz bilan bir qatorda, o‘zbek milliy

hunarmanchiligimiz mahsulotlarini ko‘rib ularni yaratilish jarayonini zavq bilan tomosha qilishi, qiziqishlarini ortirishi hamda milliligimizdan bahramand bo‘lishi bilan birgalikda, o‘z kasbini saqlab elga tanilgan ustalar yetishib chiqishiga sababchi bo‘lishmoqda. O‘zbek xalqining azaliy qadiryatlari tizimida farzand tarbiyasi, ayniqsa, uni kasb-u hunar egasi qilib mustaqil hayotga tayyorlash masalalasi halq pedagogikasining eng muhim vazifalaridan sanalgan. Mana shu vazifani amalga oshirish usullaridan biri bu: milliy hunarmandchilikni rivozlantirish, uni yosh avlodga o‘rgatish sanaladi. Buning uchun xalq hunarmandchiligini yashlar o‘rtasida keng isloh qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xalq hunarmandchiligi sharq xalqlarining qadimiy qadryati bo‘lib, u asrlar davomida ma’naviyati, urf-odatlari, orzu-intilishlarini o‘zida ifodalab kelayotgan san’at hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari shundaki, ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari usta-shogirt an’analarini o‘rtasidagi axloq-odob me’zoni, madaniyati, yosh avlodga hunarmandchilik kasbiga mexr-muhabbatini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 28.11.2019 yildagi PQ-4539-son qarori “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-4622088

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3393-son qarori “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-

3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.: “O‘zbekiston”,1998 yil

4. Xalq hunarmandchiligi darslik. Toshkent 2021 - yil

5. Texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashshuv. S. Bekmurodova